

**O‘ZBEKISTON TELEVIDENIYESIDA MADANIY-
KO‘NGILOCHAR DASTURLARNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

Quvonchbek G‘aybullayev Abdumajid o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston televideniyesida madaniy-ko‘ngilochar dasturlarning shakllanish bosqichlari, ularning rivojlanish jarayoni hamda jamiyat madaniy hayotiga ta’siri tahlil qilinadi. Televideniye taraqqiyotining dastlabki davridan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan davrda yaratilgan madaniy-ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar, ularning mazmuni, shakli va auditoriyaga ta’siri ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, milliy an’analar, san’at, musiqa va madaniyatni targ‘ib etishda televideniyeining o‘rni hamda zamonaviy texnologiyalar ta’sirida dasturlarning yangilanish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston televideniyesida madaniy-ko‘ngilochar dasturlar evolyutsiyasi va ularning jamiyat ma’naviy hayotidagi ahamiyati ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы формирования культурно-развлекательных программ на телевидении Узбекистана, процесс их развития и влияние на культурную жизнь общества. С научной точки зрения освещаются культурно-развлекательные программы, созданные с первых дней развития телевидения до наших дней, их содержание, форма и влияние на аудиторию. Также будет рассмотрена роль телевидения в продвижении национальных традиций, искусства, музыки и культуры, а также процессы обновления программ под влиянием современных технологий. В результате исследования раскрывается эволюция культурно-развлекательных программ на телевидении Узбекистана и их значение в духовной жизни общества.

Abstract: This article analyzes the stages of formation of cultural and entertainment programs on Uzbek television, the process of their development, and their influence on the cultural life of society. Cultural and entertainment programs created from the early period of television development to the present day, their

content, form, and impact on the audience are scientifically illuminated. The role of television in promoting national traditions, art, music, and culture, as well as the processes of updating programs under the influence of modern technologies, will also be considered. As a result of the research, the evolution of cultural and entertainment programs on Uzbek television and their significance in the spiritual life of society will be revealed.

Kalit soʻzlar: *Televideniye, madaniy-koʻngilochar dasturlar, telekoʻrsatuv, ommaviy axborot vositalari, milliy madaniyat, televideniye rivoji, media jarayonlari, teleloyiha, auditoriya, media madaniyat.*

Ключевые слова: *Телевидение, культурно-развлекательные программы, телепередача, средства массовой информации, национальная культура, развитие телевидения, медиапроцессы, телепроект, аудитория, медиакультура.*

Keywords: *Television, cultural and entertainment programs, television programs, mass media, national culture, television development, media processes, television project, audience, media culture.*

Oʻzbekiston televideniyesi madaniy-koʻngilochar dasturlar orqali jamiyat madaniyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni keng targʻib qilish va tomoshabinlarning estetik didini oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Televizor ijtimoiy taʼsir vositasi sifatida inson ongiga taʼsir qiluvchi kuchli media manbaidir. Oʻzbek televideniyesining madaniy-koʻngilochar dasturlari bir necha bosqichlarda rivojlanib, hozirda zamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashib bormoqda.

Oʻzbekiston televideniyesining shakllanishi 1956-yilda Toshkent shahrida ilk televizion eshittirishlarning efirga uzatilishi bilan boshlangan. Ushbu dastlabki bosqichda televideniye axborot va maʼrifiy koʻrsatuvlarga eʼtibor qaratgan boʻlsa, 1960-70 yillarga kelib, madaniy-koʻngilochar dasturlar shakllana boshladi. Ayniqsa, teatr, kino, adabiyotga bagʻishlangan maxsus telekoʻrsatuvlar oʻzbek milliy madaniyatini keng targʻib qila boshladi. Televideniye sohasida inqilob

bo'lgan ushbu sanani "O'zbekiston tarixi" telekanalining direktori Shuhrat Hayitov Yuz.uz internet nashriga bergan intervyusida quyidagicha eslaydi: "Shubhasiz, televideniyaning ochilishi o'z davrida xalqimiz hayotida chin ma'noda o'ziga xos unutilmas voqea bo'ldi. Bunday quvonchli tarixiy voqeaga guvoh bo'lgan, Toshkent telemarkazi ochilishi marosimida ishtirok etgan va 1961-1994-yillarda O'zbekiston televideniyesida faoliyat ko'rsatgan jurnalist Anbara Otamurodova o'zining "Radio va televideniye – tafakkur gultoji" (2018) kitobida bu tarixiy lahzalarni eslab bunday yozadi: "...hayotimizdagi o'sha baxtli kun – 1956-yilning beshinchi noyabr kuni edi. Kursimiz sardori Anvar Karimov (olim, tarix fanlari nomzodi va jurnalist Anvar Karimov nazarda tutilmoqda) auditoriyaga tabassum bilan kirib kelib: "Diqqat! Xushxabarlik e'lon bor. Bugun o'quv mashg'ulotlaridan keyin hammamiz bir tanu bir jon bo'lib, Shayxontohurga boramiz. Kech soat oltida Toshkent telemarkazi ochilar ekan. Biz ulkan tarixiy voqeaning guvohi bo'lamiz", dedi. Hammamiz quvonib ketdik va Shayxontohurga barchadan ilgari yetib keldik. U zamonlarda telemarkazning chor atrofi qing'ir-qiyshiq qurilgan ko'rimsiz, g'aribona uylar bilan o'rab olingan, xaloyiq bu yerda tiqilishib yashar edi. Endigina qurib bitkazilgan hashamatli telemarkaz binosi odamlar bilan gavjum... Ularning barchasi xushnud, xursand edilar...

...1956-yil 6-noyabr oqshomi! O'zbek xalqining shodligi daryoday toshgan oqshom! Bu kun xotiramizda eng nurli sana bo'lib qoldi"¹.

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, televideniyaning mazmuni keskin o'zgardi. Endilikda milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi dasturlar ko'paydi, yangi kanallar tashkil etildi. "O'zbekiston" telekanali, "Madaniyat va ma'rifat" telekanali orqali efirga uzatilgan madaniy dasturlar keng auditoriyaga ega bo'ldi. Bu jarayon milliy identifikatsiyaning shakllanishida muhim rol o'ynadi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan televideniye faoliyatida katta o'zgarishlar yuz berdi. Madaniy va ko'ngilochar dasturlar yaratishda erkinlikka

¹ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-televideniyesi-kecha-va-bugun>
www.tadqiqotlar.uz

erishildi. 1990-yillarning boshlarida O'zbekiston televideniyesi tomonidan "Yoshlar", "Nihol" kabi ko'rsatuvlar va san'at, musiqa, kino sohasidagi yangiliklarni yoritadigan dasturlar efirga uzatildi. Ushbu dasturlar nafaqat yoshlarni madaniy jihatdan tarbiyalash, balki milliy san'atni keng ommaga yetkazish maqsadida tashkil etildi. Innovatsion texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyati bo'lganligi sababli, dasturlarda audiovizual materiallar, animatsiyalar va raqamli texnologiyalar keng qo'llanildi.

O'zbekiston televideniyesi 2000-yillarga kelib, raqamli texnologiyalar va global axborot makonida kuchli o'rin egalladi. Yangi texnologiyalar yordamida madaniy-ko'ngilochar dasturlar yanada interaktiv va innovatsion shakllarda yaratila boshladi. Shuningdek, internet platformalarining rivojlanishi bilan, televideniye dasturlari onlayn tarzda ham tomosha qilinadigan bo'ldi.

Bugungi kunda, O'zbekiston televideniyesida keng turdagi madaniy-ko'ngilochar dasturlar mavjud. O'zbek milliy san'ati, musiqa, adabiyot, teatr, kino va xalq amaliy san'ati kabi sohalar keng yoritilmoqda. "Sahro va Boshqalar", "O'zgacha", "Turli yuzlar", "Zarb", "Navo shou", "Uxlamaysizmi?", "Kim bilan?" kabi zamonaviy ko'rsatuvlar tomoshabinlarga turli ko'ngilochar va madaniy materiallarni taqdim etmoqda.

Shu bilan birga, televideniye orqali xalqqa milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, madaniyatning turli tarmoqlarini namoyish etish va ko'ngilochar dasturlar orqali tomoshabinlarni xushnud qilish davom etmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston televideniyesi faqatgina ko'ngilochar dasturlar bilan cheklanmay, balki ilmiy, ta'limiy va ijtimoiy ko'rsatuvlar orqali ham o'z rolini mustahkamladi.

Hozirgi vaqtda madaniy-ko'ngilochar dasturlar quyidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda:

Musiqiy dasturlar – Estrada va milliy musiqa konsertlari, xalq ijodiga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuvlar, zamonaviy musiqa tanlovlari.

Adabiy dasturlar – She'riyat kechalari, adabiy asarlar tahlillari, yozuvchilar va shoirlar bilan suhbatlar.

Teatr va kino dasturlari – Milliy filmlar va spektakllar, aktyorlar va

rejissyorlar bilan intervyular, teatr san'atiga oid maxsus eshittirishlar.

Tarixiy-madaniy dasturlar – Milliy an'analar, tarixiy obidalar va madaniy merosni targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar.

Televideniya madaniy-ko'ngilochar dasturlarning rivojlanish bosqichlarida alohida ahamiyat kasb etadigan o'magi hisoblanmish musiqiy dasturlarning faoliyat tadriji haqida ham fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Musiqiy dasturlar O'zbekiston televideniyesida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat ko'ngilochar, balki madaniy va ma'naviy maqsadlarni amalga oshirishda ham xizmat qiladi. Musiqiy dasturlar orqali milliy va jahon musiqasini keng auditoriyaga yetkazish, zamonaviy va an'anaviy musiqaning uyg'unlashishi va madaniyatlararo aloqalar o'rnatish imkoniyati yaratiladi. Bunday dasturlar o'zbek xalqining boy musiqiy merosini saqlash va yosh avlodni musiqiy tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Musiqiy dasturlar xalqni birlashtiradigan, san'atni targ'ib qiladigan va tomoshabinni estetik jihatdan ma'naviy boyitadigan ahamiyatga ega. Ular yoshlar orasida musiqaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, xalqaro musiqiy madaniyat bilan tanishtirishda ham samarali vositadir. O'zbekiston televideniyesida musiqiy dasturlar ilk bor 1950-1960-yillarda paydo bo'la boshladi. Dastlabki dasturlar, asosan, o'zbek xalq musiqa merosini targ'ib qilishga yo'naltirilgan bo'lib, musiqiy chiqishlar, xalq qo'shiqlari va an'anaviy musiqaning boshqa janrlari efirga uzatildi. 1960-yillarda esa dasturlar ko'proq milliy musiqa san'ati, xususan, o'zbek xonandalari va musiqachilari ishtirokidagi chiqishlar bilan boyidi. O'zbekiston televideniyesidagi musiqiy dasturlarni yaratishda 1970-1980-yillarda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda musiqiy dasturlar keng ko'lamda ishlab chiqildi, turli janrlarda musiqiy chiqishlar, orkestrlar va ansambllar efirga uzatila boshlandi. Musiqiy va ko'ngilochar formatlar bir-biriga uyg'unlashdi, va shu orqali tomoshabinlarga turli xil musiqiy ko'rsatuvlar taqdim etildi. Xalq qo'shiqlari, zamonaviy musiqalar, klassik va zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan dasturlar ommalashdi. Mustaqillikdan so'ng, musiqiy dasturlar yangi bosqichga o'tdi. Televideniya tarmoqlarida o'zbek musiqa madaniyatini va yosh

ijrochilarni ommalashtirishga katta e'tibor qaratildi. 1990-yillardan boshlab, yoshlarning musiqiy qarashlarini inobatga olgan holda, "Yoshlar" kabi dasturlar tashkil etildi, bu orqali yosh xonandalar va ijrochilarni efirga chiqish imkoniyati yaratildi. Shu davrda musiqiy dasturlarda raqamli texnologiyalar, musiqiy video kliplar va interaktiv formatlar keng qo'llanila boshladi. Bugungi kunda O'zbekiston televideniyesida musiqiy dasturlar nafaqat milliy musiqani, balki jahon musiqasini ham keng tarzda yoritadi. Musiqiy dasturlar, shuningdek, yoshlar orasida musiqiy madaniyatni targ'ib qilish, xalqaro musiqiy voqealar va tendensiyalarni yoritishda muhim vosita hisoblanadi. Teletomoshabinlarning auditoriyasi kengayishi hamda musiqiy dasturlarga bo'lgan talabning yuqori ekanligini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-dekabrda "Mahalla" ma'rifiy teleradiokanalini tashkil etish va kelgusida raqamli teleuzatishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida²gi qarori² bilan "Yoshlar" teleradiokanali qoshida yana bir yangi telekanal – "Navo" telekanali faoliyat yurita boshladi. Ushbu kanalning maqsadi va asosiy vazifalari:³

- aholini jahon va o'zbek mumtoz musiqasi, zamonaviy estrada san'atining eng yaxshi namunalari, milliy ijrochilik san'ati yutuqlari bilan yaqindan tanishtirish;
- o'zbek xalq qo'shiqchiligi, raqs san'ati va cholg'u musiqa maktablarining xilma-xilligi va rang-barangligi, ular tomonidan erishilayotgan yutuqlar hamda ularning jahon madaniyatida egallagan o'rni haqida teletomoshabinlarni keng xabardor qilish;
- aholining, ayniqsa yoshlarning musiqiy bilimi va ma'naviyatini boyitishga xizmat qiluvchi mavzularni yoritish, badiiy yetuk va yuqori saviyali musiqiy teleko'rsatuvlar tashkil etish;

² <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-dekabrda "Mahalla" ma'rifiy teleradiokanalini tashkil etish va kelgusida raqamli teleuzatishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

³ <https://mtrk.uz/uz/tv/navo/about>
www.tadqiqotlar.uz

- zamonaviy milliy va xorijiy estrada, o'zbek va jahon mumtoz musiqasi, raqs san'ati, simfonik va cholg'u musiqa ijrochiligi yo'nalishlarida xilma-xil rang-barang janrlardagi telemahsulotlarni efirga uzatish;
- telemahsulotlarni sifatini, badiiy va professional saviyasini muntazam oshirib borish hamda ijodiy g'oyalarning sog'lom raqobatini rivojlantirish;
- teletomoshabinlar auditoriyasining xilma-xil, mazmundor va ma'naviy-madaniy ahamiyatga molik axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda mamlakatimizda elektron ommaviy axborot vositalari rolini yanada oshirishga hissa qo'shish;
- ijodiy ishlar xilma-xilligi, rang-barangligi va hajmini oshirish, faoliyatni rivojlantirish, asosiy ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash, istiqboldagi rejalarini ishlab chiqish va ularning to'laqonli bajarilishini ta'minlashdan iborat.

Asta-sekinlik bilan O'zbekiston televideniyesida madaniy-ko'ngilochar dasturlarning ko'payishi va kundalik hayotimizning bir bo'lagiga aylanishi ham yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekiston madaniyat va san'at instituti o'qituvchisi Ganiyeva Eleonora bu jarayonni taftish qilib, o'z maqolasida: "Bir asrdan sal kamroq vaqt oldin paydo bo'lgan va muntazam ravishda efirga uzatila boshlagan televideniye dastlab o'yin-kulgi, diqqatga sazovor joy sifatida qabul qilingan ammo vaqt o'tishi bilan, hatto yangi hodisaning teran tadqiqotchilari ham televizorning kelajagi buyuk ekanligini tushunishdi. Televizion san'atning birinchi tadqiqotchilaridan biri Vladimir Sappak bashorat bilan ta'kidlaganidek: "Bir necha yil o'tadi va televizor nafaqat bizning kundalik hayotimizga, balki bizning ongimizga, hayotimizga ham kiradi'", deb ta'kidlagan.⁴

Madaniy-marifiy dasturlarining istiqbolli rivojlanish bosqichlarida adabiy dasturlarning ahamiyati, nufuzi hamda auditoriyasi muhim zamin bo'lgan. O'zbekiston televideniyesida adabiy dasturlar o'ziga xos o'rin tutadi. Ular milliy adabiy merosni keng targ'ib qilish, yosh avlodni badiiy savodxonlikka yo'naltirish

⁴ в Молодой учёный №21 (155) май 2017 г.

Ганиева, Э. Р. Новые страницы истории телевидения Узбекистана / Э. Р. Ганиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 21 (155). — С. 57-59. — URL: <https://moluch.ru/archive/155/43863/> (murojaat sanasi: 11.02.2025).

va ma'naviy boyitish vazifalarini bajaradi. Quyida ushbu dasturlarning ahamiyati va rivojlanish bosqichlariga to'xtalamiz.

- **Madaniy merosni targ'ib qilish** – televideniyaedagi adabiy dasturlar o'zbek klassik va zamonaviy adabiyotini keng ommaga yetkazadi.
- **Ijodkorlarni tanishtirish** – yosh va tajribali adiblarning ijodi yoritilib, ularning kitoblari targ'ib qilinadi.
- **Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish** – bunday dasturlar orqali tomoshabinlar badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi.
- **Til va nutq madaniyatini oshirish** – adabiy dasturlar orqali o'zbek tilining nozik jihatlari namoyon bo'ladi.

Adabiy dasturlar O'zbekiston televideniyesi tashkil topgan ilk yillarda adabiy-ma'rifiy dasturlar muntazam efirga uzatilgan. Jumladan, "Kitobsevarlar klubi", "Adabiyot va san'at", "O'qiganing o'zingniki" kabi ko'rsatuvlar mashhur bo'lgan. Ko'plab shoir va yozuvchilar ishtirokida jonli efirda adabiy kechalar o'tkazilgan. Mustaqillik yillarining dastlabki yillarida milliylik va tarixiy mavzularga ko'proq e'tibor qaratildi. "Ijod olamida", "Adabiyot – ma'naviyat ko'zgusi", "Suhbat" kabi ko'rsatuvlar paydo bo'ldi. Mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyoti bo'yicha maxsus ko'rsatuvlar tayyorlandi. So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'sirida adabiy dasturlar formatida ham o'zgarishlar bo'ldi. "Madaniyat va ma'rifat" kanallari adabiy ko'rsatuvlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, "She'riyat kechasi", "Qaqnus", "Ma'rifiy suhbatlar" hamda "Muallimning bir kuni" kabi dasturlar ommalashmoqda. Va shuning barobarida ijtimoiy tarmoqlarda adabiy videobloglar va podkastlar paydo bo'lib boshladi. Bunga aholi qatlami orasida mashhurlikka erishgan "Lolazor" podkastini yaqqol misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari, uyali aloqa vositalarigacha o'rnatiladigan dastur ko'rinishida yaratilgan "Mutolaa" loyihasi ham ayni adabiy dasturlarning zamonaviylashganidan dalolat beradi. Ushbu loyiha muallifi hamda rahbari Sirojiddin Olimov: "Ayni paytda platformadan mingdan ortiq elektron va audio kitoblar o'rin olgan. Ularning sifatiga alohida ahamiyat qaratamiz. Yoshlarimiz kitob o'qimayapti, degan muammoga yangicha yondashuv

bo'lgan bu loyiha orqali kitoblarning elektron variantini har bitta insonning telefoniga yetkazmoqchimiz. Kitobni sifatli ovozda eshitish imkoniyatini yanada osonlashtirish maqsad qilingan”⁵ deb ta'kidlaydi. Loyiha doirasida 1100 dan ortiq kitob (badiiy asar, hikoya, ertak va ilmiy ommabop asarlar)ning audio va elektron variantlari tayyorlanib, mobil ilovaga joylashtirildi. Mazkur loyiha aholi, ayniqsa yoshlar orasida ommalashib, bugungi kunga qadar 277 mingdan ortiq kitobxon ushbu mobil ilovadan foydalanmoqda. Adabiy dasturlar millatning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning rivojlanishi O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatining mustahkamlanishiga, yosh avlodning ijodiy tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan dasturlardan zamonaviy talablarga javob beradigan, ijtimoiy qatlamga adabiyotni yoyishga xizmat qilayotgan “Qaqnus” ko'rsatuvini tahlil etadigan bo'lsak, “Madaniyat va ma'rifat” telekanalida efirga uzatiladigan adabiy-ma'rifiy dasturlardan biridir. Ushbu ko'rsatuv o'zbek adabiyotining boy merosini keng ommaga yetkazish, zamonaviy adabiy jarayonlarni yoritish va yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan. “Qaqnus” ko'rsatuvining maqsad va vazifalari o'zbek klassik va zamonaviy adabiyotining eng sara namunalari bilan tomoshabinlarni tanishtirish, yosh shoir va yozuvchilar ijodini keng ommaga yetkazish, ularning asarlarini targ'ib qilish, qolaversa, yangi asarlarni tahlil qilish, adabiy jarayonlardagi yangiliklarni muhokama qilishdan iborat. Mavzular qamrovi ham rang-barang bo'lib, mumtoz hamda eski adabiyot vakillarining hayoti va ijodi haqida maxsus sonlar, qolaversa, bugungi kunda faol ijod qilayotgan yozuvchi va shoirlar bilan suhbatlar, ularning yangi asarlari taqdimotlari amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu adabiy ko'rsatuvda nafaqat ishtirokchilar, balki tomoshabinlar ham o'zlarining ijod namunalaridan, yoqtirgan asarlaridan namunalar o'qishadi. “Qaqnus” ko'rsatuvi, asosan, adabiyotga qiziquvchi tomoshabinlarga mo'ljallangan bo'lib, turli yoshdagi va kasbdagi insonlarni qamrab oladi. Ko'rsatuvda ishtirok etgan tomoshabin sifatida dadil ayta olamanki, she'r ijro qilish jarayonidagi jonli pianinodan yaratilgan fon, dekaratsiya

⁵ <https://yuz.uz/uz/news/mutolaa>
www.tadqiqotlar.uz

yanada fayz beradi. Ushbu dastur o‘zbek adabiyotining targ‘ibotida muhim rol o‘ynaydi. U milliy adabiy merosni saqlash va rivojlantirishga, yosh avlodni kitobxonlikka jalb qilishga xizmat qiladi. “Qaqnus” ko‘rsatuvi O‘zbekiston televideniyesidagi muhim adabiy-ma’rifiy dasturlardan biri bo‘lib, uning faoliyati milliy adabiyotimizni keng ommaga yetkazish va yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston televideniyesining madaniy-ko‘ngilochar dasturlar sirasiga kiruvchi teatr hamda kino hayotini bosh mavzu qilib olgan ko‘rsatuvlar milliy televideniyeining rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular milliy madaniyatni targ‘ib qilish, tomoshabinlarning estetik didini shakllantirish va yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jadidlarimizdan Mahmudxo‘ja Behbudiy ham bejizga “Teatr — bu ibratxona” deb ta’kidlamaganlar. Shunday ekan, zangori ekranlarda namoyish etiladigan har bir filmning, undagi mehnati zalvorli aktyorlarning hayot yo‘llari, film tarixi teletomoshabinlarni befarq qoldirmaydi. Milliy televideniyesida teatr va kino dasturlarining o‘rni va ahamiyati quyidagilardan iborat:

- Teatr va kino dasturlari orqali milliy qadriyatlar, an’analar va urf-odatlar keng ommaga yetkaziladi. Bu esa yosh avlodning o‘z madaniy merosiga hurmat bilan qarashiga xizmat qiladi;
- Badiiy asarlar va sahna ko‘rinishlari tomoshabinlarning estetik didini rivojlantiradi, ularni go‘zallikni anglashga undaydi;
- Teatr va kino dasturlari insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy masalalarni yoritib, tomoshabinlarning ma’naviy kamolotiga hissa qo‘shadi;
- Bugungi kunning dolzarb masalalari sahna va ekran asarlari orqali ko‘tarilib, jamiyatda muhokama uchun zamin yaratadi;

“Madaniyat va ma’rifat” telekanali orqali ekran yuzini ko‘rgan “Debyut” ko‘rsatuvini talqinini ko‘rib chiqamiz. Ushbu ko‘rsatuvi Madaniyat va marifat telekanalida efirga uzatiladigan dastur bo‘lib, asosan yosh ijodkorlar, xususan, teatr va kino sohasidagi yangi istedodlarni namoyish etishga qaratilgan. Ushbu ko‘rsatuv

orqali yosh aktyorlar, rejissyorlar, ssenariychilar va boshqa san'atkorlar o'zlarining birinchi yirik loyihalarini tomoshabinlarga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. "Debyut" ko'rsatuvining asosiy maqsadi teatr va kino olamida o'z muxlislariga ega bo'lgan, ijrolari orqali qalblarni zabt etgan ijodkorlarning hayot yo'llari, ularning ilk rollari, kelajakdagi maqsadlari va hozirgi hayoti haqida teletomoshibinlarni xabardor qilishni maqsad qilgan. Buning barobarida, ushbu ko'rsatuv yosh avlodning yangi g'oyalari va yondashuvlari orqali milliy teatr va kino san'atini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Qolaversa, ko'rsatuv orqali tomoshabinlar teatr va kino sohasidagi kelajak yulduzlarini bilib olishadi. Formatini hamda tarkibi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, har bir ko'rsatuv sonida ijodkorlarning tajribalari va rejalari haqida so'zlab berishadi. Aktyorlar yoki rejissyorlar tomonidan tayyorlangan qisqa filmlar, spektakllar yoki sahna ko'rinishlari tomoshabinlarga taqdim etiladi. Aytish mumkinki, madaniy-ko'ngilochar dasturlarning rivojlanishi hamda kelgusi avlodlarga yanada takomillashib borishi, yashab qolishi uchun ko'rsatuvlar sonini ko'paytirish, shu bilan birgalikda, ularni ijtimoiy qatlamlarga sezilarli sildirib borish maqsadga muvofiqdir. Tarixiy-madaniy ko'rsatuvlar milliy televideniymizning ajralmas bo'lagidir. Boisi, ushbu yo'nalishdagi dasturlar orqali o'tmishdan saboqlar, foydali ma'lumotlar qabul qilamiz. Bundan tashqari, madaniy-ma'rifiy dasturlarning ilk sonlarini ham ushbu formatdagi ko'rsatuv orqali bugunimiz hamda kelajagimiz uchun tajriba maktabi qilib o'rgansak bo'ladi. Tarixiy ko'rsatuvlar orqali milliy tarix, madaniyat va an'analar yangi avlodga yetkaziladi. Bu orqali milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari kuchayadi. Bundan tashqari, tarixiy voqea va shaxslar haqidagi ko'rsatuvlar orqali xalq xotirasi yangilanadi va tarixiy meros saqlanib qoladi. Tarixiy ko'rsatuvlar orqali xalqning turli qatlamlari o'rtasida hamjihatlik va birdamlik hissi kuchayadi. Deyarli, har bir telekanalda tarixiy-madaniy ko'rsatuvlar mavjud bo'lib, ularning formati va ixtisosi turlicha. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4390-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida asosiy mezonini tarixga qurilgan dasturlardan

iborat telekanal “O‘zbekiston tarixi” telekanalini tashkil etildi.⁶ Ushbu qarorda telekanalning asosiy vazifalari etib:

Har bir voqeaning mazmun-mohiyatini izchil va tizimli ochib berish orqali buyuk tariximizning barcha davrlarini chuqur ilmiy tadqiqotlarning xolisona natijalari asosida ko‘rsatib beruvchi axborot-tahliliy va mavzuli teleko‘rsatuvlar, tok-shou, “davra suhbatlari”ni yuqori professional va g‘oyaviy-badiiy saviyada tayyorlashni tashkillashtirish;

Buyuk vatandoshlarimiz — olimlar, mutafakkirlar va aziz-avliyolar, shoir va yozuvchilar, sarkardalar, davlat arboblarning bebaho merosini keng ko‘lamda o‘rganish va ommalashtirish maqsadida ularning hayot yo‘li va qahramonligi to‘g‘risida, shuningdek, dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston eng yangi tarixining g‘oyat yorqin va unutilmas sahifalari haqida hikoya qiluvchi ilmiy-ommabop dasturlar va hujjatli filmlar turkumlarini yaratish;

Ming yillar qa‘riga ildiz otgan O‘zbekistonning ko‘hna va boy tarixi, xalqimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan g‘oyat katta ilmiy, madaniy va ma‘naviy hissasi haqida mamlakatimiz aholisini, shuningdek, chet el jamoatchiligini keng ko‘lamda xabardor qilish;

Xorijiy telekanallar, ilmiy-tadqiqot markazlari va jamg‘armalar tomonidan tayyorlangan, jahon tarixining ahamiyatli lavhalarini aks ettiruvchi, shuningdek, O‘zbekiston hududida ming yillar davomida sodir bo‘lgan tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar va shaxslar to‘g‘risida hikoya qiluvchi ko‘rsatuvlarni sotib olish, o‘zbek tiliga tarjima qilishni tashkillashtirish va milliy teleradiokanallar efirlarida joylashtirishga ko‘maklashish;

O‘zbekiston tarixi va jahon tarixida yorqin iz qoldirgan voqealar va shaxslarga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy badiiy filmlarni muntazam namoyish qilish, shuningdek, ushbu mavzu bo‘yicha mamlakatimiz kino san‘ati ustalari bilan badiiy filmlar va teleseriallar yaratishda ishtirok etish deb belgilandi.

⁶ <https://lex.uz> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston tarixi” telekanalining tashkil etish to‘g‘risidagi qarori

Shu tarzda, O'zbekiston televideniyesida madaniy va ko'ngilochar dasturlarning rivojlanish bosqichlari qadam baqadam bosib o'tildi.

Aytish mumkinki, bugungi raqamli texnologiyalar avj olib borayotgan bir pallada ham ushbu dasturlarning rivojlanish darajasi tobora o'smoqda. Shubhasiz, raqamli texnologiyalar va internet platformalarining rivojlanishi bilan televideniye yangi bosqichga o'tdi. Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashishi O'zbekiston televideniyesiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. YouTube, Telegram va boshqa platformalar orqali madaniy-ko'ngilochar kontent auditoriyaga tez yetib bormoqda. Bu esa televideniyedagi raqobatni kuchaytirdi va sifatni oshirishga turtki bo'ldi.

Madaniy-ko'ngilochar dasturlar ijtimoiy va iqtisodiy omillarga ham bog'liq. Televizion mahsulotlarni yaratishda moliyaviy imkoniyatlar, reklama bozorining rivojlanishi, tomoshabinlarning talab va didi e'tiborga olinadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniy kontentni yaratishda davlat qo'llab-quvvatlashi va xususiy sektorning investitsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy-ko'ngilochar dasturlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodning estetik va ma'naviy tarbiyasida katta rol o'ynaydi. Shu sababli, O'zbekiston televideniyesida ushbu yo'nalishni takomillashtirish, yangi formatlarni yaratish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim masalalardan biridir. Televizion kontent ishlab chiqarishda xorijiy tajribalardan o'rganish, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish va interaktiv dasturlarni yaratish bugungi kun talablariga javob beradi.

O'zbekiston televideniyesida madaniy-ko'ngilochar dasturlar uzoq yillik tarixga ega bo'lib, ular doimo jamiyat ehtiyojlariga mos holda rivojlanib kelmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va auditoriya talablaridan kelib chiqqan holda bu dasturlarni takomillashtirish va yanada ommabop qilish muhim masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-televideniesi-kecha-va-bugun>
2. <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-dekabrda "Mahalla" ma'rifiy teleradiokanalini tashkil etish va kelgusida raqamli teleuzatishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
3. <https://mtrk.uz/uz/tv/navo/about>
4. В Молодой учёный №21 (155) май 2017 г. Ганиева, Э. Р. Новые страницы истории телевидения Узбекистана / Э. Р. Ганиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 21 (155). — С. 57-59. — URL: <https://moluch.ru/archive/155/43863/>
5. <https://yuz.uz/uz/news/mutolaa>
6. <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston tarixi" telekanalining tashkil etish to'g'risidagi qarori